

4 mavzu. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi, bozor iqtisodiyotining shakllanishi va amal qilishi

Reja.

1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi
2. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotida resurslar, mahsulotlar va daromadlarning aylanishi.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari. Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari.
4. Bozor infrastrukturasi va tarkibi.

Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi

Kishilik jamiyatining rivojlanishida ijtimoiy xo'jalikni tashkil etishning ikkita umumiy iqtisodiy shakli ajralib turadi. Umumiy iqtisodiy shakllarning tarixan birinchisi natural ishlab chiqarish hisoblanadi. Ijtimoiy xo'jalikning bu shaklida yaratilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, xo'jalik ichki ehtiyojlari uchun mo'ljallangan.

Demak, **o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish – natural ishlab chiqarish, bunday ishlab chiqarishga asoslangan xo'jalik esa – natural xo'jalik deb ataladi.**

Натурал ва товар хўжалигининг асосий фарқлари

Асосий жиҳатлар	Натурал хўжалик	Товар хўжалиги
1. Неъматларни ишлаб чиқаришнинг асосий мақсади	Шахсий эҳтиёжларни қондиришда фойдаланиш	Бошқа товарларга айирбошлаш, бозорда олди-сотди қилиш
2. Ишлаб чиқариладиган маҳсулот таркибининг аниқланиши	Эҳтиёжлар ва имкониятлардан келиб чиққан ҳолда олдиндан аниқланади	Бозордаги муайян талаб ва ишлаб чиқарувчининг хусусий манфаати асосида аниқланади
3. Истеъмолчини ўзига жалб этиш учун кураш	Бундай кураш мавжуд эмас	Бундай кураш мавжуд ва товар хўжалигининг ривожланиши билан кучайиб боради
4. Ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг истеъмол қилиниши даражаси	Барча ишлаб чиқарилган маҳсулотлар тўлиқ истеъмол қилинади	Ишлаб чиқарилган маҳсулотлар айрим турлари ва қисмлари сотилмай қолиши, яъни истеъмол килинмаслиги

Tovar xo'jaligi

1. Mahsulot va xizmatlarni o'z ehtiyojini qondirish uchun emas, balki bozorda ayirboshlash uchun ishlab chiqarish tovar ishlab chiqarish, bunday ishlab chiqarishga asoslangan xo'jalik esa – tovar xo'jaligi deyiladi.
2. Tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buyum orqali, ular mehnati mahsulini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi.
3. Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi, mahsulotlar turi va miqdorining o'sishi natijasida paydo bo'ladi.

Tovar xo'jaligining vujudga kelishi va amal qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari hamda shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- 1) ijtimoiy mehnat taqsimotining ro'y berishi. Bunda ishlab chiqaruvchilar u yoki bu aniq mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashuv, o'z navbatida, qiyosiy ustunlik tamoyili bo'yicha, ya'ni mahsulotni nisbatan kam muqobil qiymatda ishlab chiqarish layoqati bilan aniqlanadi;
- 2) shaxsiy va xususiy mulkchilikning shakllanishi, ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi. Bunda ular o'z mulklari hamda mehnat natijalarini o'zlari tasarruf qiladilar.

Iqtisodiy alohidalik xo'jalik faoliyatiga oid barcha qarorlarni ishlab chiqaruvchining o'zi hal qilishini bildiradi. Xuddi shu ikki holat tovar ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi va bozor iqtisodiyoti vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat mahsuli tovarga, ya'ni bozorda ayirboshlash uchun, sotish uchun tayyorlanadigan narsaga, ishlab chiqaruvchilar esa

Tovar ikki xususiyatga ega:

Bir tomondan, u kishilarning qandaydir ehtiyojini qondira oladigan, ikkinchi tomondan esa, boshqa buyumlarga ayirboshlana oladigan buyumdir. Boshqacha aytganda, tovar naflilikka (iste'mol qiymatiga) va qiymatga egadir.

Buyumning iste'mol qiymati uning kishilar uchun nafli ekanligi, muayyan naf keltirishi orqali namoyon bo'ladi. U shaxsiy iste'mol buyumi yoki ishlab chiqarish vositalari sifatida kishilarning biron-bir narsaga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Tovar qiymatining miqdori

Tovar qiymatining miqdori **ijtimoiy-zaruriy ish vaqti** orqali hisoblanadi. **Ijtimoiy zaruriy ish vaqti muayyan ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi va jadalligi darajasi o'rtacha bo'lgan sharoitda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtidir.**

Pulning vujudga kelishi va mohiyatining turli ilmiy konsepsiyalari mavjud boʻlib, ular orasida ratsionalistik va evolyusion konsepsiyalar muhim oʻrin tutadi.

Ratsionalistik konsepsiya pulning kelib chiqishini kishilar oʻrtasidagi bitim, kelishuv natijasi sifatida izohlaydi.

Pulning mohiyatini to'laroq tushunish uchun uning quyidagi **asosiy vazifalarini** ko'rib chiqamiz: 1) qiymat o'lchovi; 2) muomala vositasi; 3) boylik to'plash vositasi; 4) to'lov vositasi.

Bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilari,

Bozor iqtisodiyoti – bu iqtisodiy munosabatlarning umumiyliigi bo‘lib, ular yordamida jamiyat mahsuloti tovar-pul shakliga aylantiriladi. Bozor iqtisodiyotining vujudga kelishiga tovar ishlab chiqarilishi sabab bo‘lgan.

Tarixan bozor iqtisodiyoti rivojlanishining bir necha bosqichlari farqlanadi.

1. Kapital to‘planishning birlamchi bosqichi (18 asr oxiri – 19 asr boshlarida ITI natijasidagi sanoat to‘ntarishi boshlanganda yakunlangan).
2. Erkin raqobat davri.
3. Jamiyat ishlab chiqarishining monopolizatsiyasi.
4. Aralash iqtisodiyot.

Bozor iqtisodiyoti – bu tizimli tushuncha bo‘lib, quyidagilarni anglatadi,

1. Bozor munosabatlari iqtisodiyotning barcha jabhalariga singib ketgan va ularni qamrab oladi.
2. Bozor munosabatlari iqtisodiyot faoliyatini tashkillashtirishning asosiy shakliga aylanadi.
3. Bozor munosabatlari yalpi ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chikarishning elementiga aylanadi.

Бозор иқтисодиётининг асосий белгилари:

1. хусусий мулк ва унинг асосида товар ишлаб чиқарувчиларининг иқтисодий алоҳидалиги вужудга келади;
2. иқтисодий фаолият турини танлаш эркинлиги;
3. шахсий манфаат – шахсий фойда олиш омили;
4. нархлар тизимига таяниш;
5. монополизмни истисно қилувчи товар ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги рақобат;
6. Давлатнинг чекланган хўжалик фаолиятида тўғридан-тўғри иштирок этиши.

Бозор муносабатлари.

Бозор муносабатлари – бу биринчи навбатда пул шаклида намоён бўлган алмашиш муносабатларидир.

Бозор муносабатларнинг субъектлари бўлиб мулкка ва профессионал кўникмаларга эга бўлган жисмоний ва юридик шахслар, шунингдек давлат бўлиши мумкин.

Сотувчи ва харидордан ташқари бозорда сотувчи ва харидорни бир-бирини топишга ёрдам берадиган воситачи ҳам бўлиши мумкин.

Юридик шахслар ичида бозор субъектлари бўлиб уй хўжалиги, корхона (фирма), банк ва давлат ҳисобланади.

Бозор муносабатларининг объекти.

- **Бозор муносабатларининг объекти бўлиб турли шаклларда мавжуд бўлган товар бўлиши мумкин.**
- Бозор иқтисодиётининг марказий объекти меҳнат орқали ёки табиатнинг ўзи томонидан яратилган бойлик ҳисобланади. Инсонга зарур бўлган бойликлар орасида алоҳида ўринни хизматлар эгаллайди.
- Хизматлар – бу инсоннинг мафсадга мувофиқ фаолияти бўлиб, унинг натижасида фойдали натижага эга бўлинади ва инсоннинг бирор-бир эҳтиёжларини қондиради. Бозор иқтисодиётининг объекти бўлган бойликлар моддий ва номоддий бойликларга бўлинади.
- Моддий бойликларга қуйидагилар киради: табиат инъомлари (ер, сув, ҳаво, иқлим), ишлаб чиқариш маҳсулотлари (озик-оқат, бинолар, иншоотлар, машиналар, транспорт, асбоб-қуроллар ва ҳ.к).
- Номоддий бойликлар – бу инсон қобилиятининг ривожланишига таъсир қилувчи бойликлар, улар ишлаб чиқаришга тегишли бўлмаган соҳаларда яратилади: соғлиқни сақлаш, таълим, санъат, кино, театр, музей ва шу кабилар.
- Шу тарзда бозор хўжалиги объектларига қуйидагилар киради: товар ва хизматлар, ишлаб чиқариш омиллари (меҳнат, ер, ишлаб чиқариш воситалари), пуллар, қимматли

Бозор муносабатларининг моҳияти/

Бозор муносабатларининг моҳияти сотувчи (ишлаб чиқарувчи ва савдогар)ларнинг харажатларини қоплаш ва улар томонидан фойда олиш, шунингдек ўзаро эркин битим, эквивалентлик имкониятлари, рақобатлар асосида харидорларнинг тўловга қодир талабини қондиришдан иборат.

2.Bozor iqtisodiyotida resurslar, mahsulotlar va daromadlarning aylanishi.

Iqtisodiy nazariyada bozor iqtisodiyotining eng keng qo'llaniladigan ta'riflaridan biri iqtisodiy aylanishni o'rganishga asoslangan.

Iqtisodiy aylanish – bu daromadlar va xarajatlarning qarama-qarshi oqimlari bilan kechadigan haqiqiy boyliklarning aylanishidir.

Mazkur model o'zidan iqtisodiyotda tovar va pul oqimlarining aylanishi deb atalgan bozor ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning umumiylikini ifodalaydi. Uning asosiy farazi shundan iboratki, iqtisodiyotda qarorlarni qabul qiluvchi ikkita sub'ekt mavjud – uy xo'jaliklari va korxonalar (firmalar).

Firmalar mehnat, er va kapital, ya'ni ishlab chiqarish omillardan foydalangan holda tovar va xizmatlar ishlab chiqarishadi.

Uy xo'jaliklari ishlab chiqarish omillariga ega bo'lib, firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlarni iste'mol qilishadi.

4. Bozor iqtisodiyoti afzalliklari:

1. Bozor ishlab chiqarishni resursdan mumkin qadar ko‘proq foyda olishga qaratgan holda, resursni tejamlifoydalanishni rag‘batlantiradi;
2. Bozor talabga tez moslashishga, assortimentni o‘zgartirishga va chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashga majbur qiladi;
3. Ishlab chiqarish tuzilmasi yaxshilanadi, chunki yanada samarali ishlab chiqaruvchilar ifodalaydi.
4. Biznes o‘zgarayotgan bozor talablariga moslashadi.
5. Bozor iqtisodiyotning har bir ishtirokchisini imkon qadar samaraliroq harakat qilishga majbur qiladi, chunki bozorda eng kam xarajat qilgan holda, maksimal natijalarga (foydagi) erishgan ishtirokchi yutadi.

Bozor iqtisodiyotining cheklanganligi va ziddiyatlari:

1. Erkin bozor daromadlarning differentsiatsiyasi (ortishi)ga, o'z navbatida aholining yashash darajasining o'sishiga olib keladi, biroq ijtimoiy himoyani ta'minlamaydi;
2. Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur miqdordagi pullarni ta'minlay olmaydi;
3. Aholining to'liq bandligini ta'minlay olmaydi;
4. Jamoa foydalanadigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun rag'batlarni yaratmaydi;
5. Fundamental ilmiy tadqiqotlar uchun motivatsiyalamaydi (rag'batlantirmaydi);
6. Inson yashash muhitini ifloslanishdan himoyalamaydi.

Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari.

Bozor –pul yordamida ishlab chiqarish va tovar almashinuvi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar umumiyligidir.

Bozor iqtisodiy tushuncha sifatida – xaridorlar va sotuvchilar o'rtasidagi, shuningdek savdo vositachilari o'rtasidagi tovar va pullarning harakati borasidagi aniq iqtisodiy munosabatlarning umumiyliги bo'lib, bozor munosabatlari sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradi va mehnat mahsulotlarining almashinuvini ta'minlaydi.

Bozor mexanizmi.

Bozor mexanizmi – bu narxlarning shakllanishi va resurslarning taqsimlanishi, sotuvchilar va tovar xaridorlari o‘rtasidagi bozorning uchta asosiy elementlari: taklif, talab va narxning raqobat sharoitida o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri asosidagi mexanizmini anglatadi.

Bozor iqtisodiyotida narxlar tizimi asosiy tashkillashtiruvchi kuch rolini bajaradi.

Narx – bu sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) va xaridor (ist’emolchi) uchun mo‘ljaldir.

Agar narx o‘sgan taqdirda – bu ishlab chiqarishni kengaytirishga bo‘lgan chorlash, agar narx tushsa – bu qisqartirishga undash bo‘ladi. Narxda tovar qiymatini belgilashga bo‘lgan barcha uchta yondashuvni aks ettiradi: imkon qadar foydalilik, ishlab chiqarish chiqimlari, talab va taklif.

Bozor funksiyasi:

1. Axborot funksiyasi doimiy o'zgaruvchi narxlar, kredit uchun foiz stavkalari orqali bozor ishtirokchilarga bozorga etkazilayotgan tovar va xizmatlarning ijtimoiy zarur bo'lgan miqdori, assortimenti va sifati to'g'risida ob'ektiv axborotni taqdim etadi.
2. Bozorning vositachilik funksiyasi sotuvchiga o'zi uchun eng qulay xaridorni tanlashga imkon beradi, iste'molchi esa o'ziga kerakli bo'lgan tovarning eng qulay etkazuvchisi va sotuvchisini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.
3. Narx hosil qiluvchi funksiya ishlab chiqarishda, ehtiyojda va kon'yunkturadagi o'zgarishlarga sezgir bo'lgan qiymat va narx o'rtasidagi harakatchan aloqani o'rnatishga yordam beradi.

4. Boshqaruvchi funksiya bozorning iqtisodiyotning barcha sohalariga, va birinchi navbatda ishlab chiqarishga ta'sir qilishi bilan bog'liq. Raqobat mahsulot birligiga ketadigan xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini o'stirish, texnik taraqqiyot, mahsulot sifatini oshirishga rag'batlantiradi. U iqtisodiyotning eng qulay tuzilmasini yaratadi. Zamonaviy sharoitlarda iqtisodiyot nafaqat Adam Smit yozgan "ko'rinmas qo'l" bilan, balki davlat richaglari orqali ham boshqariladi.

5. Sanatsiya (yaxshilash) funksiyasi. Raqobat yordamida bozor ijtimoiy ishlab chiqarishni iqtisodiy jihatdan zaif, beqaror va yashashga qodir bo'lmagan xo'jalik birliklaridan tozalaydi.

Bozor strukturasi (tuzilmasi) – bu bozorning alohida elementlarining ichki tuzilishidir.

Bozor tuzilmasi turli mezonlar bo‘yicha tasniflanib, ular ichida eng muhimi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiy maqsadiga ko‘ra tovar va xizmatlar, ishlab chiqarish vositalari, mehnat, investitsiyalar, qimmatli qog‘ozlar, moliya bozorlari farqlanadi.
2. Jo‘g‘rofiy joylashishiga ko‘ra mahalliy, hududiy, milliy va jahon bozori mavjud.
3. Raqobatning cheklanganligi darajasiga ko‘ra monopolistik, oligopolistik, erkin va aralash bozorlarga bo‘linadi.
4. Tarmoqlar bo‘yicha avtomobil, don va shu kabi bozorlar.
5. Sotuv hususiyatiga ko‘ra ulgurji va chakana bozorni ko‘rsatish mumkin.

Bozor infrastrukturasi va uning tarkibi.

Bozor infrastrukturasi – bu tovar va xizmatlarning harakatini belgilovchi tashkiliy-huquqiy shakllar umumiyligidir. Bozor infrastrukturasi institutlari tushunchasi ostida bozor munosabatlari faoliyatini, barcha turdagi bozorlarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi korxonalar umumiyligi tushuniladi.

Zamonaviy bozor infrastrukturasi asosiy elementlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Birjalar (tovar, xom-ashyo, fond, valyuta), ularning tashkiliy rasmiylashtirilgan vositachiligi;
2. Auktsionlar, yarmarkalar va birjadan tashqari vositachilikni tashkillashtirishning boshqa shakllari;
3. Kredit tizimi va tijorat banklari;
4. Emissiya tizimi va emissiya banklari;
5. Aholining bandligini boshqarish tizimi va bandlikka ko'maklashish bo'yicha davlat va nodavlat markazlari (mehnat birjalari);
6. Axborot texnologiyalari va ish kommunikatsiya vositalari;
7. Soliq tizimi va soliq inspeksiyasi;
8. Tijorat xo'jalik tavakkalini va kompaniyani sug'urtalash tizimi;
9. Maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari agentliklari;

davomi

10. Savdo palatalari, ish doiralarining boshqa jamoatchilik, ko'ngilli va davlat birlashmalari (uyushmalari);
11. Bojxona tizimi;
12. YOllanma ishchilar kasaba uyushmalari;
13. Tijorat-ko'rgazma komplekslari;
14. Oliy va o'rta iqtisodiy ta'lim tizimi;
15. Auditorlik kompaniyalari;
16. Maslahat (konsalting) kompaniyalari;
17. Tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan jamoatchilik va davlat fondlari;
18. Erkin tadbirkorlik uchun maxsus zonalar.